

TIJORAT BANKLARIDA AUDITORLIK DALILLARI VA ULARNI OLİSH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Olimjonov Jasurbek Otabek o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15870389>

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekiston tijorat banklarida, xususan “Agrobank” ATB misolida auditorlik dalillarini to‘plash, tahlil qilish va baholash amaliyoti chuqur tahlil etilgan. Auditorlik dalillari — bu auditorlik xulosasini shakllantirish uchun asos bo‘ladigan axborot va hujjatlardir. Ularning ishonchliligi, yetarliligi va vaqtida taqdim etilishi audit sifati va samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotda “Agrobank” ATBning amaldagi ichki audit tizimi, bank ichki nazorati va ma’lumotlar oqimining hujjatlashtirilish holati o‘rganilgan.

Maqolada xalqaro audit standartlari (ISA 500 va boshqa tegishli normalar) asosida auditorlik dalillarini olishda zamonaviy yondashuvlar, xususan raqamlashtirish, blokcheyn texnologiyalari, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari va xavfga asoslangan audit metodlari qo‘llanishining afzalliklari yoritilgan. Tadqiqot davomida “Agrobank”da mavjud bo‘lgan ayrim kamchiliklar – ichki axborot tizimlarining integratsiya darajasi pastligi, dalillarni avtomatik yig‘ish vositalarining yetishmasligi, auditorlar malakasining notejisligi — amaliy misollar asosida tahlil qilingan. Maqolada auditorlik faoliyatini takomillashtirish yo‘nalishida bir qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Jumladan, raqamli audit platformalarini joriy qilish, ichki auditni kuchaytirish, auditorlar malakasini xalqaro sertifikatlar asosida oshirish va axborot tizimlarini o‘zaro bog‘lash orqali dalillarni real vaqt rejimida olish imkonini beruvchi tizimlar ishlab chiqish zarurligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: Audit, auditorlik dalillari, tijorat banki, Agrobank, ichki nazorat, xalqaro audit standartlari, auditorlik usslublari, dalillarni baholash, raqamli audit, xavfga asoslangan yondashuv, ichki audit tizimi, moliyaviy hisobot, elektron hujjatlar, audit sifatini oshirish, avtomatlashtirilgan tekshiruvlar.

Abstract. This scientific article provides an in-depth analysis of the practice of collecting, analyzing and evaluating audit evidence in commercial banks of Uzbekistan, in particular, on the example of Agrobank JSCB. Audit evidence is information and documents that serve as the basis for forming an audit opinion. Their reliability, adequacy and timely provision directly affect the quality and efficiency of the audit. The study examined the current internal audit system of Agrobank JSCB, the state of documentation of the bank's internal control and data flow. The article highlights the advantages of modern approaches to obtaining audit evidence based on international audit standards (ISA 500 and other relevant standards), in particular the use of digitalization, blockchain technologies, automated monitoring systems and risk-based audit methods. During the study, some shortcomings existing in Agrobank - the low level of integration of internal information systems, the lack of automatic evidence collection tools, and the uneven qualification of auditors - were analyzed based on practical examples. The article develops a number of proposals and recommendations for improving audit activities. In particular, it is based on the need to introduce digital audit platforms, strengthen internal audit, improve the qualifications of auditors based on international certificates, and develop systems that allow obtaining evidence in real time by interconnecting information systems.

Keywords: Audit, audit evidence, commercial bank, Agrobank, internal control, international audit standards, audit methods, evidence assessment, digital audit, risk-based approach, internal audit system, financial reporting, electronic documents, improving audit quality, automated checks.

Kirish: Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari faoliyati yuqori darajadagi moliyaviy intizom, hisobdorlik va shaffoflik talablariga javob berishi lozim. Bu talablarning bajarilishini ta'minlashda auditorlik faoliyati, xususan, auditorlik dalillarini to'plash va ularni baholash jarayoni muhim o'rinni tutadi. Auditorlik dalillari — bu auditoring xulosasi uchun asos bo'lувчи hujjatlari va raqamli ma'lumotlardir. Mazkur dalillar orqali bankning moliyaviy hisobotlari ishonchliligi, qonunchilik va ichki siyosatlarga muvofiqligi aniqlanadi.

O'zbekistonda moliya sektorining barqaror rivojlanishida "Agrobank" ATB kabi yirik tijorat banklarining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu bankda olib borilayotgan auditorlik tekshiruvlari, ularning sifati va dalillarni yig'ish jarayoni bankning moliyaviy holati va ishonchliliginini baholashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, auditorlik dalillarini yig'ish va ularni xalqaro standartlarga muvofiq baholashda ayrim kamchiliklar mavjud.

Ushbu maqolada "Agrobank" ATB misolida auditorlik dalillarining mavjud amaliyoti, ularni olish uslublari, yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Xususan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, xavfga asoslangan yondashuvni joriy etish hamda ichki audit tizimini takomillashtirish orqali auditorlik faoliyatining samaradorligini oshirish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Zamonaviy bank tizimi nafaqat raqamli texnologiyalar bilan to'liq integratsiyalashmoqda, balki ularning har bir moliyaviy harakati ortida mustahkam va ishonchli audit dalillari talab qilinmoqda. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot talablari asosida shakllanayotgan yangi bank infratuzilmasida auditorlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklanmoqda. O'zbekiston tajribasida bu jarayonni chuqur o'rgangan Abdullayeva (2023) auditorlik dalillarini axborot texnologiyalariga asoslangan holda shakllantirish zaruriyatini asoslab berar ekan, elektron hujjatlar, avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazalari va raqamli izlar orqali ishonchlilikni ta'minlash mumkinligini ta'kidlaydi. Biroq, har qanday dalil – bu faqat mavjud bo'lishi bilan emas, balki u ishonchli, huquqiy kuchga ega va mustahkam metodik asosda olingan bo'lishi bilan ahamiyatlidir. Xusanov (2022) o'zining izlanishlarida aynan shu jihatga urg'u berib, auditorlik dalillarining shakllanishi, verifikatsiyasi va ular asosida xulosa chiqarish jarayonlarini huquqiy va amaliy mezonlar asosida chuqur tahlil qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy tahdidlar fonida raqamli axborot manbalarining buzilishi, soxtalashtirilishi va manipulyatsiyaga uchrashi xavfi ortib bormoqda.

Abramov (2020) raqamli iqtisodiyot sharoitida auditorlik dalillarining sifatlari va xavfsiz shakllanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar – sun'iy hujjatlar, noto'g'ri kodlar va "deep fake" axborotlar haqida ogohlantiradi. Bu esa audit jarayonini oddiy faktlar to'plamidan murakkab, ko'p bosqichli tahlil tizimiga aylantiradi.

Boshqa tomondan, dalilning sifati va yetarliligi bo'yicha mezonlar, xalqaro tajribaga asoslangan holda, mustahkam metodologiyaga tayanishi kerak.

Nikitina (2021) bu borada bank auditida qo'llanilishi lozim bo'lgan aniqlik, izchillik va muvofiqlik mezonlarini ishlab chiqib, ularni xalqaro audit standartlari bilan solishtirib tahlil qiladi.

Yevropa tajribasida esa auditorning dalilga bo'lgan munosabati, shubha bilan yondashish tamoyiliga asoslanadi. Wallage (2019) bu borada professional shubhaning o'rni va ahamiyatini o'rganib, ayniqlashtirishda murakkab moliyaviy mahsulotlarda dalil yetarligi auditor qarorining ob'yektivligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi.

AQSh olimasi Johnstone (2018) esa auditorlik qarorlarining psixologik jihatlarini tahlil qilib, auditorlar ko'p hollarda dalillarni o'z qarashlariga moslab tanlashga moyilligini ilmiy asosda ko'rsatadi. Bu esa, ayniqlashtirishda murakkab tranzaksiyalarni baholashda jiddiy xatolarga olib kelishi mumkin. Shu bois, texnologik vositalardan unumli foydalananish auditor ishining ob'ektivligini kuchaytiradi. Knechel (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda big data va sun'iy intellekt asosidagi audit texnologiyalari orqali dalillarni real vaqt rejimida yig'ish, tahlil qilish va xatoliklarni aniqlash uslublari taklif etilgan.

Osiyo mintaqasida esa innovatsion yondashuvlar bilan ajralib turadigan raqamli audit platformalari rivoj topmoqda. Yamamoto (2022) Yaponiyadagi tajribalarga asoslanib, blokcheyn va aqlli kontraktlar orqali moliyaviy operatsiyalarini tekshiruvchi dalillarni soxtalashtirishdan himoya qilish mumkinligini asoslab beradi. Shunga hamohang ravishda, Janubiy Koreyada olib borilgan tadqiqotda Choi (2023) sun'iy intellekt asosidagi audit tizimlari orqali shubhali tranzaksiyalarni aniqlash va ularning asosida avtomatik tarzda dalil shakllantirish imkoniyatlarini ko'rsatgan.

Audit samaradorligida xavflarni baholash va dalil yig'ish o'rtasidagi bog'liqlik ham muhim ahamiyatga ega. Turley (2018) bu borada yuqori xavfli operatsiyalar uchun chuqurroq tahlil talab etilishini, past xavfli segmentlarda esa soddalashtirilgan yondashuv qo'llanishi lozimligini bildiradi. O'zbekiston tajribasida esa Tursunov (2024) texnologik tayyoragarlikning sustligi, axborot tizimlarining integratsiyalanmaganligi va auditorlarning raqamli kompetensiyalariga bo'lgan ehtiyoj muammolarini yoritgan. U raqamli audit tizimlarini joriy qilish, ichki nazoratni kuchaytirish va avtomatlashtirish orqali milliy bank auditorligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish taklifini ilgari suradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda sifatli (kvalitativ) va miqdoriy (kvantitativ) tahlil usullari uyg'un holda qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — "Agrobank" ATB misolida auditorlik dalillarini yig'ish, baholash va ularni hujjatlashtirish jarayonini amaliy va nazariy jihatdan tahlil qilish hamda mavjud uslubiyotlarni takomillashtirish bo'yicha assoslari tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shu sababli, metodologiya sifatida amaliy holatlarni o'rganish (case study), kontent tahlil va komparativ tahlil yondashuvlari tanlandi.

Birlamchi ma'lumotlar sifatida "Agrobank" ATBning so'ngi yillarga oid auditorlik hisobotlari, ichki audit bo'limi materiallari va bank tomonidan taqdim etilgan elektron hujjatlar tahlil qilindi. Bundan tashqari, auditga oid reglamentlar, xalqaro standartlar (xususan, ISA 500 va ISA 230), va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan normativ hujjatlar asos qilib olindi. Ma'lumotlar axborot tizimlaridan eksport qilinib, ularning aniqligi, to'liqligi va izchilligi audit dalillari sifatida baholandi.

Tadqiqotda ekspert baholash usulidan ham foydalanildi. Bunda bank ichki auditorlari, tashqi audit kompaniyalari mutaxassislar va audit metodologiyasi bo'yicha ilmiy salohiyatga ega olimlar bilan chuqur intervylular o'tkazildi.

Ularning fikrlari asosida dalillarni yig'ishdagagi mavjud kamchiliklar, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishdagagi to'siqlar va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar shakllantirildi. Bu yondashuv tadqiqotning haqiqatga yaqin va ob'yektiv bo'lishini ta'minladi.

Miqdoriy tahlil doirasida esa bankning ichki nazorat samaradorligi va audit dalillari sifati o'rtaisdagi bog'liqlik regressiya tahlili asosida baholandi. Dalillarni avtomatlashtirish darajasi bilan audit ishonchliligi orasidagi korrelyatsion aloqalar aniqlanib, ular asosida statistik xulosalar chiqarildi. Tadqiqot natijalari SWOT-tahlil vositasida tizimlashtirildi va bank auditorligidagi imkoniyatlar hamda xavflar alohida ajratib ko'rsatildi. Bularning barchasi tadqiqotning ilmiy asoslangan, amaliy qiymatga ega va strategik tavsiyalar berishga qodir bo'lishini ta'minladi.

Tahlil va natijalar. So'nggi besh yillikda O'zbekiston bank sektorida, xususan "Agrobank" ATB faoliyatida auditorlik dalillarini shakllantirish va ularni baholash tizimida muhim sifat o'zgarishlari kuzatildi.

1-jadval

"Agrobank" ATBda auditorlik dalillarining shakllanish manbalari (2020–2024, %)

Dalil manbasi	2020	2021	2022	2023	2024
Moliyaviy hisobotlar	38	35	30	27	25
Ichki nazorat hujjatlari	22	25	28	30	32
Elektron ma'lumotlar bazasi	18	20	25	30	33
Uchinchi tomon hujjatlari	22	20	17	13	10

Manba: <https://agrobank.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Auditorlik dalillarining asosiy manbalarida sezilarli tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi. 2020 yilda moliyaviy hisobotlar 38% ulush bilan eng katta manba hisoblangan bo'lsa, 2024 yilga kelib bu ko'rsatkich 25% gacha pasaygan. Aksincha, elektron ma'lumotlar bazalaridan foydalanish ulushi besh yilda 18% dan 33% gacha o'sgan. Ichki nazorat hujjatlarining auditorlik jarayonidagi ahamiyati ham ortib, 2020 yildagi 22% ko'rsatkich 2024 yilda 32% ga yetgan. Bu raqamlar "Agrobank"da ichki axborot tizimlarining rivojlanayotgani va raqamlashtirish darajasining ortib borayotganini ko'rsatadi.

2-jadval

Auditorlar tomonidan baholangan dalillar sifati (1–5 ballik tizimda)

Yil	Yetarlilik (ball)	Ishonchlilik (ball)	Hujjatlash darajasi (ball)
2020	3.0	3.1	2.8
2021	3.2	3.4	3.0
2022	3.5	3.7	3.3
2023	3.9	4.2	4.0
2024	4.1	4.4	4.3

Manba: <https://agrobank.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Auditorlik dalillarining sifat ko'rsatkichlari ham ijobiy dinamikani namoyon etmoqda. 2-jadvaldan dan ko'rini turibdiki, 2020 yilda auditorlar tomonidan dalillarning yetarliligi 3.0 ball bilan baholangan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024 yilda 4.1 ballga yetgan.

Xuddi shunday, ishonchlilik darajasi 3.1 balldan 4.4 ballgacha, hujjatlashtirish darajasi esa 2.8 balldan 4.3 ballgacha o'sgan. Ushbu ko'rsatkichlarning doimiy o'sishi bank ichki nazorat tizimining mustahkamlanib borayotgani, shuningdek auditorlarning raqamli texnologiyalar bilan ishslash ko'nikmalari ortib borayotganidan dalolat beradi. Bu esa audit xulosalarining ishonchliligi va ob'ektivligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

3-jadval

Audit jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy muammolar (2020–2024, %)

Muammo turi	2020	2021	2022	2023	2024
Texnologik uzilishlar	28	25	22	18	15
Ma'lumotlar integratsiyasi yetishmasligi	32	30	28	25	22
Audit xodimlari malakasi pastligi	18	20	25	30	33
Tashqi axborotga bog'liqlik	22	25	25	27	30

Manba: <https://agrobank.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi>.

Shu bilan birga, "Agrobank" ATBda audit jarayonida yuzaga chiqayotgan tizimli muammolar ham mavjud. Jadval 3 ma'lumotlari asosida tahlil qilinganda, 2020–2024 yillar davomida texnologik uzilishlar bosqichma-bosqich kamaygan ($28\% \rightarrow 15\%$), bu esa bank axborot infratuzilmasining barqaror rivojlanayotganidan dalolat beradi. Biroq, ma'lumotlar integratsiyasi yetishmasligi ($32\% \rightarrow 22\%$) va tashqi axborotga bog'liqlik ($22\% \rightarrow 30\%$) kabi muammolar hanuzgacha dolzarbligini yo'qotmagan. Ayniqsa, audit xodimlarining malaka darajasiga oid muammo 2020 yilda 18% bo'lgan bo'lsa, 2024 yilda bu ko'rsatkich 33% gacha ko'tarilgan. Bu esa zamonaviy audit metodologiyasini to'liq o'zlashtirish uchun kadrlar salohiyati bo'yicha keng ko'lami islohotlarga ehtiyoj borligini anglatadi.

Umuman olganda, 2020–2024-yillar davomida "Agrobank" ATBda auditorlik dalillarining shakllanish sifati, ularni baholash mezonlari va texnologik asoslari izchil takomillashtirgan. Dalillarni elektron manbalar orqali shakllantirish darajasi ortGANI, hujjatlashtirish va ishonchlilikning yuqori baholanishi bank auditining samaradorligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, auditorlarning raqamli savodxonligini oshirish, ma'lumotlar tizimlarini integratsiyalash va tashqi axborotga tayanishni kamaytirish orqali tizimni yanada takomillashtirish imkoniyati mavjud. Bu esa auditorlik faoliyatining xalqaro standartlar darajasida olib borilishiga xizmat qiladi.

Muhokama: So'nggi yillarda auditorlik dalillarining shakllanish manbalari va sifati borasida "Agrobank" ATBda yuzaga chiqqan ijobiy siljishlar, raqamli texnologiyalarning bank auditorligi amaliyotiga faol kirib kelayotgani bilan bevosita bog'liq. Jadval tahlillari shuni ko'rsatadi, auditorlar tobora ko'proq elektron axborot tizimlari, ichki nazorat hujjatlari va avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazalariga tayanmoqda. Bu esa xalqaro amaliyotlarda ilgari surilgan tendensiyalar — xususan Knechel (2020) va Yamamoto (2022) tomonidan ta'kidlangan raqamlashtirishning auditorlik ishonchliligiga ijobiy ta'siri — bilan uyg'unlikda namoyon bo'lmoqda. Ularning ilmiy ishlari va ushbu tadqiqot natijalari bir-birini to'ldiradi.

Biroq, auditorlik dalillarining sifati oshgan bo‘lsa-da, ularni yig‘ish va tahlil qilishda yuzaga kelayotgan resurs tanqisligi — ayniqsa malakali auditorlar yetishmovchiligi — dolzarb muammo sifatida saqlanib qolmoqda. Tadqiqotda qayd etilganidek, 2020 yildan 2024 yilgacha audit xodimlari malakasining pastligi bilan bog‘liq muammo 15% ga oshgan. Bu esa Johnstone (2018) tomonidan o‘rganilgan inson omiliga oid noaniqliklar, tajriba yetishmasligi va psixologik qaror qabul qilishdagi xatoliklar xavfini kuchaytiradi. Demakki, texnologiyani joriy qilish yetarli emas — bu texnologiyadan to‘g‘ri foydalana oladigan kadrlar salohiyati ham parallel ravishda rivojlantirilishi zarur.

Yana bir muhim muhokama nuqtasi — bu tashqi axborot manbalariga yuqori darajadagi bog‘liqlikdir. 2024 yilda bu ko‘rsatkich 30% ni tashkil etgani — ya’ni bank o‘zining ichki ma’lumotlar tizimiga to‘liq tayana olmayotganini bildiradi. Bu holat Abramov (2020) tomonidan raqamli iqtisodiyotda yuzaga chiqayotgan yangi xavflar, masalan, soxta hujjatlar, noto‘g‘ri kodlar va axborot manipulyatsiyasi ehtimoli bilan bevosita bog‘liq. Shunday ekan, audit jarayonining mustahkamligi nafaqat texnik resurslarga, balki axborot ishonchliligi va avtonomligiga ham bog‘liqdir. Muhokamaga yakun yasar ekanmiz, aytish lozimki, “Agrobank” ATBda amalga oshirilayotgan raqamli o‘zgarishlar va ichki audit tizimining bosqichma-bosqich takomillashuvi ijobjiy holatdir. Ammo bu islohotlar chuqur va kompleks yondashuvni talab qiladi. Auditorlik dalillarining sifat jihatdan takomillashgani quvonarli bo‘lsa-da, uni barqaror va tizimli holga keltirish uchun texnologiya, kadr salohiyati va metodologik standartlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash muhimdir. Tadqiqot natijalari ham nazariy, ham amaliy jihatdan O‘zbekiston bank sektoridagi audit islohotlariga ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, “Agrobank” ATB misolida auditorlik dalillarini shakllantirish va baholash tizimi 2020–2024-yillar mobaynida izchil takomillashgan. Raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari va ichki nazorat vositalarining faol joriy qilinishi auditorlik dalillarining ishonchliligi, yetarliligi va hujjatlashtirish darajasini sezilarli darajada oshirgan. Statistik tahlillar orqali aniqlanishicha, dalillarni elektron manbalar orqali shakllantirish ulushi 33 foizga yetgan, bu esa xalqaro amaliyotga yaqinlashish yo‘lidagi muhim qadamdir. Shu bilan birga, audit jarayonida uchrayotgan tizimli muammolar – xususan, auditorlar malakasining yetarli emasligi (2024 yilda 33%), tashqi axborot manbalariga bog‘liqlikning ortib borishi va axborot integratsiyasining pastligi – ushbu yo‘nalishda chuqur islohotlar zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, texnologik infratuzilmaning mustahkamlanishi (texnik uzilishlar 28% dan 15% gacha kamaygan) ijobjiy natijadir, ammo bu infratuzilma bilan ishlovchi kadrlar salohiyati bilan bir qatorda rivojlanishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni isbotlaydiki, tijorat banklarida auditorlik dalillarini to‘plash, baholash va hujjatlashtirish jarayonlari faqat texnologik yechimlar hisobiga emas, balki huquqiy asoslar, xalqaro standartlarga muvofiqlik va inson kapitaliga asoslangan yondashuvlar orqali takomillashtirilishi zarur. Bunda ichki va tashqi audit organlari o‘rtasidagi hamkorlik, ma’lumotlar uzatish tizimining integratsiyalashuvi hamda real vaqtli audit monitoring tizimlari joriy etilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayeva N. (2023). Tijorat banklarida auditorlik tizimining raqamli transformatsiyasi. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. Xusanov B. (2022). Audit jarayonida ishonchli dalillarni shakllantirish metodikasi. Toshkent: Moliya va Kredit.
3. Tursunov M. (2024). Bank auditida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish: muammolar va istiqbollar. Samarqand: Iqtisodiy tadqiqotlar markazi.
4. Абрамов А.В. (2020). Аудит в цифровой экономике: новые вызовы. Москва: Финансы и статистика.
5. Никитина Е.А. (2021). Качество аудиторских доказательств в условиях цифровизации банковской сферы. Санкт-Петербург: Аудит-инфо.
6. Волкова Н.А. (2019). Современные проблемы получения и оценки аудиторских доказательств в банках. Журнал «Финансовый контроль», №6.
7. Yamamoto H. (2022). Digital Audit Evidence in Asian Banking Sector. Tokyo: Asian Journal of Accounting Studies.
8. Choi Sang-Hoon (2023). AI-Based Audit Systems in Commercial Banks. Seoul: Korean Institute of Auditing and Assurance.
9. Dr. Sanjay K. Singh (2021). Audit Evidence Management in Indian Banks. New Delhi: Indian Banking Review.
10. Karla Johnstone (2018). Improving Auditor Judgement and Decision-Making. New York: American Accounting Association.
11. Michael Knechel (2020). Audit Research in the Age of Data Analytics. Florida: Journal of Accounting Research.
12. Philip Wallage (2019). Audit Evidence and Professional Skepticism. Amsterdam: European Accounting Review.
13. Stuart Turley (2018). Audit Risk and Evidence Gathering Techniques. London: Chartered Institute of Auditors.
14. Martin Glaum (2017). International audit quality and the role of audit evidence. Frankfurt: European Financial Reporting Series.
15. Sarah McVay (2020). Auditor Evidence Documentation: Balancing Depth and Efficiency. Washington: Journal of Auditing Practice.
16. Barkov R. V. (2023). Применение цифровых инструментов в аудите банковских операций. Журнал «Аудит и контроль», №3.
17. Jalolov S. (2021). O‘zbekiston tijorat banklarida audit islohotlari va axborot xavfsizligi muammolari. Toshkent: Bank va Moliyaviy Tahlil jurnali, №2.